



**BUXORO VILOYATI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
BOS HQARMASI TASARRUFIDAGI VILOYAT BOLALAR
KUTUBXONASI**

“Qalbim quvonchisan bolajon”

1-iyun bolalarni himoya qilish kuniga atab metodik qo‘llanma

*1 - iyun - Xalqaro bolalarni himoya
qilish kuni!*



72.3
Q18

“Qalbim quvonchisan bolajon”: Metodik qo‘llanma
/Tuzuvchi M.Ro‘ziyeva, Buxoro:2025.

Ushbu **“Qalbim quvonchisan bolajon”** nomli qo‘llanma, 1-iyun bolalarni himoya qilish kuniga atalgan bo‘lib, bunda har bir bolaning ta’lim, sog‘liqni saqlash va xavfsiz muhitda ulg‘ayishini ta’minlash uchun jamiyatda eslatma sifatida bizning hayotimiz va jamiyatlarimizdagi bolalarning muhimligini ta’kidlab, turli kitobxonlik tadbirlar turkumi hamda mantiqiy savol-javoblar o‘yinlaridan tashkil topgan.



Aziz bolajonlar, siz biz uchun aziz ne'matsiz. Biz kattalar sizning kamolingiz, iste'dod va qobiliyatingiz ro'yobi hamda baxtli bo'lishingiz uchun barcha imkoniyatlarni yaratishga mas'ulmiz.

Sh. Mirziyoyev

O'zbek xalqi azal-azaldan bolajon xalq. Yurtimizning qaysi bir go'shasiga bormang, bolalarga ko'rsatilayotgan g'amxo'rliklarning guvohi bo'lasiz. Istiqlol yillarida mamlakatimizda bolalar manfaatlarini himoya qilishga alohida e'tibor qaratildi. Yosh avlodni jismonan va ma'nan sog'lom qilib voyaga yetkazish, farzandlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasigacha ko'tarildi. Zero, bolalarni himoya qilish kuni bayramining maqsadi keng jamoatchilik diqqatini barcha o'sib kelayotgan bolajonlarga ayniqsa, muammoli bolalarga, ularning huquqlarini himoya qilishga, himoyalangan dunyoda yashash imkoniyatlariga, baxtli bolalikka ega, bo'lishlariga to'la-to'kis va xotirjam fuqarosi bo'lib o'sishlariga ishonch uyg'otishdir.

Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni – har yili bolalar sharafiga nishonlanadigan esdalik sanasi bo'lib, ularni nishonlash sanasi mamlakatga qarab har xil bo'ladi. 1925-yilda Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni birinchi marta Jenevada bolalar farovonligi bo'yicha Butunjahon konferensiyasida e'lon qilingan. 1950-yildan buyon ko'plab mamlakatlarda 1-iyun kuni nishonlanadi. Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni dunyoning 50 ga yaqin mamlakatlarida nishonlansa ham, boshqa ko'plab davlatlarda har yili 20-noyabr kuni «Xalqaro bolalar kuni» sifatida birdek nishonlanadi.

Xalqaro bolalar kuni 1959-yil 20-noyabrda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Bola huquqlari deklaratsiyasi munosabati bilan 20-noyabr kuni nishonlanadi. Ba'zi mamlakatlarda bu bolalar kuni emas, balki bolalar haftaligi hisoblanadi. Sikhlar 20-dekabrda 27-dekabrgacha Bolalar kunini nishonlaydilar. AQShda Bolalar kuni 2024-yil 20-mayda nishonlanadi.

Bolalarni himoya qilish kuni 1857-yil iyun oyining ikkinchi yakshanbasida Massachusetts shtatining Chelsi shahridagi cherkov ruhoniysi doktor Charlz Leonard tomonidan boshlangan. Leonard bolalarga bag'ishlangan maxsus xizmat o'tkazdi. Leonard bu kunni Atirgul kuni deb atadi, garchi u keyinchalik Gullar yakshanbasi va keyin Bolalar kuni deb nomlandi.

Bolalarni himoya qilish kuni birinchi marta 1920-yilda Turkiya Respublikasi tomonidan 23-aprel sanasi bilan rasman milliy bayram deb e'lon qilingan. Bolalarni himoya qilish kuni 1920-yildan beri hukumat va o'sha paytdagi gazetalar tomonidan bolalar kuni deb e'lon qilinganligi sababli milliy miqyosda nishonlanadi. Biroq, bu bayramni aniqlashtirish va asoslash uchun rasmiy tasdiqlash zarur deb qaror qilindi va rasmiy bayonot 1929-yilda Turkiya Respublikasining asoschisi va birinchi prezidenti Mustafa Kemal Atatürk tomonidan milliy miqyosda e'lon qilindi.

Bolalar kuni nima uchun kerak

Bolalik - bu inson hayotidagi eng yorqin xotiralarga boy davr hisoblanadi. Har bir narsa hayajonli, qiziqarli va betakror bo'lib tuyuladi. Xuddiki har qanday orzusi amalga oshayotganday. Ammo bu holatlar har doim ham bolaga bog'liq emas, ko'p narsa uning yonida bo'lgan kattalarning qo'lida.

Bolalar kuni – bu bolalar va ularning huquqlarini hurmat qilish uchun alohida kun. Bu dunyoning ko'plab mamlakatlarida bolalar farovonligi va farovonligini oshirish uchun nishonlanadi. Bolalarni himoya qilish kuni har bir bolaning ta'lim, sog'liqni saqlash va xavfsiz muhitda ulg'ayishini ta'minlash uchun jamiyatga eslatma sifatida bizning hayotimiz va jamiyatimizdagi bolalarning muhimligini ta'kidlaydi. Odatda bu kunda paradlar, madaniy chiqishlar va xayriya mablag'larini yig'ish kabi turli tadbirlar o'tkaziladi. Bu ota-onalar, tarbiyachilar o'qituvchilar va jamoalar uchun bizning dunyomizdagi bolalarning ahamiyati haqida fikr yuritish imkoniyatidir.

Bola dunyosini asraylik!

Xalqimizda go'zal bir naql bor "Bolaligim – poshsholigim". Bu hikmatli so'z zamirida bolaning shaxsiga bo'lgan hurmat, uning ruhiy olamiga bo'lgan munosabat yotadi. Shu jihatdan, bolalik – samimiylik, beg'uborlik, quvnoqlik davridir. Bolaning har bir xatti-harakati, atrofdagilarga munosabati, hatto kulgisida ham shu go'zal jihatlar mujassamini ko'ramiz.

Darhaqiqat, biz, kattalar aksariyat hollarda bola dunyosiga shu mezonlardan turib munosabatda bo‘lamiz. Bola dunyosiga xos bo‘lgan go‘zal sifatlarni – beg‘uborlik, poklik, samimiylkni ko‘ramiz. Shunday ekan, bugungi globallashuv davrida bola o‘z dunyosida shu mezonlarni qay darajada saqlab qolyapti. Bola boladek fikrlayaptimi yoki munosabat va xatti-harakatda bo‘lyaptimi?

Aslida, G‘arb olimlarini o‘ylantirgan ham shu masala, ya‘ni bolalarda bolalik davrining yo‘qolib borayotgani masalasidir. Ular ilmiy va ijtimoiy tahlillar natijasida bunga uch omil sabab bo‘layotganini asoslab berdilar. Ya‘ni birinchidan, oilaviy nizolar tufayli ajrimlar natijasida moddiy qiyinchilik, tirikchilik tashvishining bola zimmasiga tushishi; ikkinchidan, turli kasalliklar, fojiali nizolar, urushlar natijasida bolalar o‘limining ortishi; uchinchidan, axloqsizlikni targ‘ib etuvchi, jangari hamda kattalar turmushidagi muammoli filmlar, o‘yinlar boshqalarning bola dunyosiga ta'siri.

Darhaqiqat, bugungi texnika rivojlangan, shiddatli bir davrda bu muammolar butun dunyoni tashvishga solayotgani sir emas. Shunday ekan, bugungi tinch va farovon hayotda bola dunyosi bilan bog‘liq bu kabi muammolar bizni ham o‘ylantirmay qolmaydi. Bola dunyosidan bolalikni izlaymiz. Biroq izlaganimiz kattalar dunyosi bo‘lib chiqadi. Ularni jonsiz, kuchsiz o‘yinchoqlar qiziqtirmaydi, balki kattalar hayotidagi “haqiqiy o‘yinchoqlar” qiziqtiradi. Misol uchun, ular qo‘liga o‘yinchoq telefon beringchi, qanday qabul qiladi. Yo‘q, ularni haqiqiy telefon qiziqtiradi.

Tasavvur qilyapsizmi, 2 yoki 3 yoshli bola mobil vositasidagi o‘yinlarni bemalol boshqaryapti, seriallardagi, filmlardagi voqealarni tahlil qilyapti, maza-matراسi yo‘q qo‘shiqlarni yod olib, uning ta'sirida turli holat va harakatga tushyapti. Bu ham yetmagandek, film qahramonlarining tashqi qiyofasi, xatti-harakati va o‘zaro munosabatlari bola dunyosiga qanday bo‘lsa, shundayligicha ko‘chyapti. Natijada bola katta odamning kichraytirilgan “nusxasi”ga aylanib qolyapti.

Bir ayol 2 yoshli bolasining turli savollarni berayotgani va bunga javob berishga qiynalayotganini aytib qoldi. Eng hayratlanganim, 3 yoshga ham kirmagan bolaning so‘nggi rusumdagi mobil telefon vositasidan mashinali o‘yinni boshqarayotgani bo‘ldi. Bu kabi holatlarni ko‘rib, nega biz kattalar bola qalbini, undagi beg‘uborlik, samimiylk kabi pokiza tuyg‘ularni asray olmayapmiz. Aksincha, bila turib, bee'tiborlarcha, ular olamiga xudbinlik, loqaydlik, tushkunlik, nopoklik kabi salbiy illatlarni joylayapmiz.

To'g'ri, texnika rivojlangan asrda bolalarni to'lig'icha himoyalay olmaymiz. Biroq, ularni nazoratga olgan holda, yoshiga mos bo'lmaganalaridan cheklashimiz mumkinku. Aksariyat ota-onalar bu jarayonga befarqlarcha qarab, bolam ishimga xalaqit bermasin yoki tinch o'tirsin, deb televizor qarshisida yoki qo'lga telefonni tutqazib, qo'shiq yoki o'yinni qo'yib berib, yolg'iz qoldiradi. Bola onasidan yoki atrofida gilardan topa olmagan mehr va e'tiborni jonsiz matohdan qidiradi. Oxir-oqibat jonsiz matohning tilidek gapiradi, fikrlaydi va atrofida gilarga ham shunday munosabatda bo'ladi.

Aslida, muammodek ko'rinmaydigan bu kabi xatti-harakatimiz, bir kun kelib, qanchadan qancha salbiy oqibatlarga olib kelishini nahot o'ylab ko'rmayapmiz. Aksincha, ularga e'tiborli bo'lgan holda, ertak, ibratli rivoyatlar, qisqa va sodda tarzda topishmoqlar aytib, ular ongi va qalbini boyitaylik. Eng muhimi, bolalarimizni bolalarcha beg'ubor, samimiy holda asray olaylik.

Bolalik – inson olami shakllanadigan qisqa va eng muhim davrdir. Mana shu qisqa davrda bola dunyosiga biz kattalar poklik, ezgulik, yaxshilik urug'larini qadaylik. Keling, bugungi kunda “Bolaligim – poshsholigim” maqolining mohiyatini o'zgartirmaylik. Bu ibora bola beg'uborligiga nisbatan aytilgan hikmatli so'z bo'lib qolaversin. Bolalarimizni, ularning dunyosini har qanday tashqi ta'sirlardan, jonsiz matoh ko'rinishidagi “tarbiyachi”lardan asraylik. Shundagina biz, o'zligimizni, naslimizni, buyuk ajdodlarimiz qonida oqqan poklikni asragan bo'lamiz. Zero, Vatanimizning ertangi kuni, uning porloq kelajagi bugungi o'sib kelayotgan yosh avlod qo'lida ekanini aslo unutmasligimiz kerak.

Nima uchun bolalik xotiralarimiz muhim?

Bolaligingizdan qanday maxsus daqiqalarni eslaysiz? Balki do'stlaringiz yoki qarindoshlaringiznikiga borganingizda? Yoki birinchi tishingizni qachon yo'qotdingiz? Yoki tug'ilgan kuningizga sovg'a olganingizda? Bu bolalik xotiraları ba'zan oddiy bo'lib tuyuladi, lekin ular butun hayotingiz uchun asos bo'lishi mumkin. Keling, bolalik xotiraları qanday yaratilgani, ularni qanday baham ko'rishimiz va bu xotiralar hayotimizga qanday ta'sir qilishini batafsil ko'rib chiqaylik.

“Bolalik xotiraları” atamasi bolalik davrida shakllanadigan xotiralarni anglatadi. Bilasizmi, ko'pchilik kattalar 2,5 yoshga to'lgunga qadar o'z hayotlari haqida ozgina eslashadi? Ilgari tadqiqotchilar buni chaqaloqlarning

xotiralari to'liq rivojlanmaganligi sababli deb o'ylashgan, ammo yaqinda o'tkazilgan tadqiqotlar buning aksini ko'rsatmoqda. Bolaligimizdan qancha eslashimizga ikkita omil ta'sir qilishi mumkin: xotiralarimiz qanday shakllanadi va biz ularni qanday baham ko'ramiz.

Uzoq muddatli xotiraning ikki turi mavjud. Ikkalasi ham bolalik xotiralarimizni shakllantirish va saqlashda rol o'ynaydi. Bolalik davrida bizning xotiralarimizning aksariyati ongsiz (yashirin) xotiralardir. Ammo biz ulg'aygan sayin, biz ko'proq ongli (aniq) xotiralarni to'play boshlaymiz. 6-7 yoshga kelib, bizning xotiramiz yanada rivojlanadi va kattalar xotirasiga yaqinlashadi.

“MUSTAQIL YURT ERTASIMIZ, ISTIQLOLNING ERKASIMIZ!” nomli ssenariy

Boshlovchi: Qadrli, bolalar! Bugun sizlar bilan 1-iyun Xalqaro Bolalarni himoya qilish kuni munosabati uchun yig'ildik. Barchangizni ushbu bayram bilan tabriklayman! Kelinglar bugungi bayramimizni bolalar qo'shiq bilan boshlaymiz.

Boshlovchi:Uyg'onar cho'qqilar ustida oftob,

Yam-yashil vodiya sochi boltinnur.

O'zbeklar yurti bu navqiron, ozod,

Zaminda musaffo o'lkasan mag'rur.

Oqar daryolaring xay kirib oqsin,

Sog'lom avlodlaring barkamol o'ssin.

Tinchlikomonlikshioring bo'lsin

Yurting boy hamisha sog'omon bo'lsin.

1-bola: O'zbekiston farzandimiz,

Mustaqil yurt dilbandimiz.

Elimizning erkasimiz,

Vatanimiz ertasimiz.

2-bola: Bobolarga davomchi,
Istiqbolning tayanchi.
Ko'kka yetar orzular,
Biz Vatanning ishonchi.

3-bola: Sog'inch bilan tonglari otar.
Erkalanib tog'lari yotar.
Xargiyoxni nur kuli bilan
Siypab quyosh o'zi uyg'otar.
Nurli bo'ston xurgulistonim
Tilda doston O'zbekistonim!

4-bola: Shu o'lkaning erkasi bizlar
Ham buguni ertasi bizlar
Vorislari biz o'g'il-qizlar
Nurli buston xur gulistonim
Tildadoston O'zbekistonim!

5-bola: Ko'k yuzin yashnatar minglab yulduzlar
Yer yuzin yangratar o'g'il va qizlar
Biz yerning yulduzi yurt o'g'il-qizi
Biz bilan porlagay gul, Vatan yuzi.

Sho'x musiqa ostida davraga Bilmasvoy kirib keladi.

Bilmasvoy: Iye, bu yerda nima bo'lyapti. Bunchayam odamlar ko'p.

Boshlovchi: Ha, Bilmasvoy! Salom yo'q, odob yo'q, alik yo'q 2ta sumkani
ko'tarilib qayerga ketyapsan ?

Bilmasvoy: Ey! Shuniyam bilmaysizmi, bayramga ketyapman !

Boshlovchi: Xo‘b yaxshi, bayramga ketyapman, sanashni, yozishni, o‘qishni bilasanmi?

Bilmasvoy: Ey! Mani nima deyapsiz! Qoyillataman!

Boshlovchi:Bo‘lmasa seni bir sinaylikchi. $2+2$ nechchi bo‘ladi.

Bilmasvoy: 3 bo‘ladi .

Boshlovchi: To‘g‘rimi bolalar!

Bolalar: Yo‘q, noto‘g‘ri 4 bo‘ladi .

Boshlovchi: $1+1$ qo‘shsak nechchi bo‘ladi .

Bilmasvoy: Be.....Shuniyam bilmaysizmi, 11 bo‘ladi . 11 tramvay borku, 2 oyoq...

Boshlovchi:To‘g‘rimi bolalar !

Bolalar: Yo‘q, noto‘g‘ri 2 bo‘ladi .

Boshlovchi: Ko‘rinib turibdi qoyillatishingni.Unda seni sport bilan sinab ko‘ramiz (Arqon tortish musobaqasi)

Boshlovchi :Mana bunaqa bo‘ladi sport musobaqasi shuniyam eplolmadingku. Yana aqilli ekanmish. Axir bugun qanaqa kunligini xam bilmaysan. To‘g‘rimi.

Bilmasvoy: 1-sentyabrku Bugun maktabga boradigan kun to‘g‘rimi bolajonlar

Bolajonlar Yo‘q. Bugun 1-iyun bolalar kuni.

Boshlovchi:Ey landovur shuniyam bilmaysami Bolalar kuni bugun qani bir sherlardan aytibberchi. Bilasanmi? Yoki Vatan nimaligi bilasanmi

Bilmasvoy :Yo‘q. bilmayman.

Boshlovchi: Unda bizning bolalaradan eshitib va o‘rgangin.

Boshlovchi: Vatan-bu qanday sehrli makonki, uning himoyasi, tinchligi deb xalqlar jonini ayamaydi. Uni qanday jozibasi borki, egalari begonalarga bergisi kelmaydi.

1-bola: Uni qanday jozibasi borki, egalari begonalarga bergisi kelmaydi.

Buyuk bobomiz Amir Temur o‘zbekning ana shunday farzandi edilar.

JaloliddinManguberdihamshularqatoridandirlar.

2-bola: Vatanning qanday mehri borki undan yiroqlashsang o‘ziga tortadi. Birumro‘zvatataninisog‘inibo‘tganMirzoBoburi bor buvatanning.

3-bola: Bu ulug‘ ajdodlarimiz o‘zlari yashagan vaqtlarida ham vatanlarining mustaqil va ozod bo‘lishini orzu qilganlar va shu yo‘lda kurashganlar.

“O‘zbekcha raqs ijro etiladi”.

Boshlovchi: Bolalar hozir qanaqa fasl?

Bolalar: Yoz!

Boshlovchi: Yozni qanaqa oylari bor?

Bolalar: Iyun, iyul, avgust !.

Boshlovchi: Judayam to‘g‘ri .

Bola: Qator-qator bo‘lishib, yuramiz ildam shahdam.

Kuchga, zavqqa to‘lishib, kuylaymiz yayrab har dam.

Bola: Bizning avlod yosh avlod,har bir ishga qodir mard.

Alpomishdek botir-u,barchinoydek sarvqomat.

Bola: Avlodimiz xo‘p dono, yurt ishqida yonadur.

«Sog‘lom tanda sog‘ aql», degan bizning shior bor.

Boshlovchi: Bolajonlar qaranglar davramizga mehmon bo‘lib Yoz kirib kelyapti-ku!

(Musiqqa ostidaYoz kirib keladi. Qo‘lida sariq gul)

Yoz: Salom aziz bolajonlar! Mana men o‘lkangizga tashrif buyurdim. Men sizlarga quyoshni, kamalag-u rang-barang gullarni, mevalar-u, mazza qilib cho‘miladigan soniyalarni olib keldim. Yoz mobaynida sizlar o‘sasizlar, kuchlaringga kuch qo‘shiladi, chunki quyosh nurlari sizlarga huzur baxsh etadi. Suv xavzalaridagi suvlar sizlarni jonlantiradi. Sog‘lom kuchli va baquvvat qiladi. Iliq yoz shabbodasi esa sizlarni erkalaydi. Qani bolalar aytinglarchiYoz shiori nima?

Bolalar: Quyosh, suv, toza havo-tanga beradi davo.

Yoz: Judayam to‘g‘ri bolajonlar. Bugun men sizlarga bog‘imdagi gullarimdan ola keldim. Bu gul oddiy emas sehrli. Uning yordami bilan biz sayohatga chiqamiz. Faqatgina sehrli so‘zlarni aytsak bas.

Yoz: Kelinglar bo'lmasa bolajonlar, sehrli so'zni hammamiz birgalikda aytaylik.

Hamma: Gul, gul, gul! Tilagimni Bajo qil.

Yoz: Biz quvnoqlar davrasiga tushib qolaylik.

Yoz: Bolajonlar kelinglar endi topishmoqlar mamlakatiga sayohat qilamiz.

Hamma: Gul, gul, gul! Tilagimni Bajo qil

Yoz: U tushganda dala qir

Kuladi qiqir-qiqir (yomg'ir).

Qo'lsiz oyoksiz eshik ochar (shamol).

O'yib oldim yuzi yuq (suv).

Ko'zga ko'rinmas qo'lga ilinmas

Usiz xech joyda hayot ham bo'lmas (havo).

(bolalar topishmoq javoblarini o'ylab aytib beradilar)

Yoz: Qani bolalar sehrli so'zimizni aytishda davom etamiz.

Hamma: Gul, gul, gul! Tilagimni Bajo qil.

Yoz: Biz raqsga tushaylik

Bilmasvoy: Bolalar! Bilasizlarmi, men o'zimni judayam yaxshi his qilyapman. Chunki men sizlar bilan yugurdim, sakradim, o'ynadim, mazza qildim. Endi men ketaman xayr bolajonlar

1-bola: O'lkamizga kirib keldi oltin yoz,

Yo'llarida chamanzorlar poyondo.

Yoshlik kuyi jaranglaydi sho'x ovoz,

O'lkamizga kirib keldi oltin yoz.

2-bola: Salqin bog'cha bog'larida o'ynaymiz,

Do'stlarimiz zavqi bilan quvnaymiz.

Tiniq suvda cho'milamiz yayraymiz,

Salqin bog‘chabog‘larida yashnaymiz.

Boshlovchi: Bolalar biz yaxshi va tinch yashashimiz uchun, osmonimiz musaffo, yerimiz go‘zal, gullar va o‘simliklarga, meva-yu sabzavotlarga boy bo‘lishi. Ariq va daryolarimizda suvlar oqib turishi uchun doim ona tabiatimizni asrashimiz, unga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishimiz lozim. Bizdan keyin keladigan avlodlarga ham go‘zal tabiatni qoldirishimiz kerak. Yana bir bor barchanigizni mustaqillik kuni bilan tabriklayman. Vatanimizda barcha yaxshi narsalar bolalar, ya’ni sizlar uchun yaratilayotganini eslatib o‘taman. Barchanigizni quvnoq raqsga taklif qilaman!

Ommaviy raqs.

(raqs vaqtida bolalar boshlari uzra rang-barang sharlar yog‘diriladi).

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Бақоева.Ш.Юртда хуррам униб-ўсгин болажон!(1-июнь Халқаро болаларни ҳимоя қилиш куни)//Бухоронома.№42,2022,1-бет
- 2.Юнусов.Б.Обод ва тинч юртимнинг фарзандлари. //Янги Ўзбекистон. №108,2022,1-5 бет
- 3.Остонов.Н. Мовий осмон, зилол сой.//Ўзбекистон адабиёти ва санъати. №18,2022,6-бет
- 4.Остонов.Н.Оила бағрида улғайиш бахти.//Халқ сўзи.№112-113,2022,1-8 бет